

“O‘zTMK” AJ
Kuzatuv kengashining
2025 yil “8” sentabr dagi
10 - sonli Qarori bilan
“TASDIQLANGAN”

“O‘zbekiston texnologik metallar kombinati” AJ faoliyatida
korruptsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash
USLUBIYOTI

**“O‘zbekiston texnologik metallar kombinati”AJ faoliyatida korrupsiyaviy
xavf-xatarlarni aniqlash va baholash
USLUBIYOTI**

Mazkur Uslubiyot “O‘zbekiston texnologik metallar kombinati”AJning (bundan buyon matnda Jamiyat deb yuritiladi) faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar.

1. Jamiyatning faoliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashning maqsadlari quyidagilardan iborat:

Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko‘p duch keladigan vazifa va funksiyalarini aniqlash hamda korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo‘lgan lavozimlar ro‘yxatini shakllantirish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

2. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash quyidagilar ishlab chiqilishini nazarda tutadi:

korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dastur;

korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati;

korrupsiyaga moyil bo‘lgan munosabatlar elektron reyestri.

3. Ushbu Uslubiyotda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

korrupsiyaviy xavf-xatar – davlat xizmatchisining o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda mavjud sabab va sharoitlarda korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish ehtimoli;

korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi – Jamiyat faoliyatida amalga oshiriladigan vazifa va funksiyalar (jarayonlar) bilan bog‘liq yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarning tavsifi va darajasi, funksiyalarni (jarayonlarni) tartibga soluvchi mexanizmlar, funksiyalarni (jarayonlarni) amalga oshirishga mas‘ul bo‘lgan lavozim, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari, qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi, korrupsiyaviy xavf-xatarni bartaraf etish choralarni amalga oshirishga mas‘ul ijrochilarni o‘z ichiga olgan hujjat;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik - korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash – Jamiyatning faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) tahlil qilish, mavjud korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va ushbu xavf-xatarlar darajasini baholash bo‘yicha faoliyat;

qoldiq xavf-xatar - aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarni bartaraf etish yuzasidan belgilangan choradan keyin saqlanib qoladigan xavf-xatar;

maxsus bo‘linma – Jamiyatning Komplayens xizmati;

ishchi guruh – Jamiyat korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uchun tuziladigan xodimlar tarkibi.

2-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashni tashkil etish.

4. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash Jamiyat markaziy apparatining barcha boshqarma va bo'limlarini qamrab olishi lozim.

Bunda, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash maxsus bo'linma yoki Ishchi guruh tomonidan amalga oshiriladi.

5. Ishchi guruh a'zolari Jamiyatning tarkibiy boshqarma va bo'limlari mas'ul xodimlaridan iborat tarkibda tashkil etiladi.

Boshqaruv raisi tomonidan buyruq bilan Ishchi guruh tarkibi tasdiqlanadi hamda uning faoliyati muvofiqlashtiriladi.

6. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashda Jamiyatning Ishchi guruh tomonidan quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash bo'yicha ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish;

Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini ishlab chiqish;

Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur loyihasini ishlab chiqish;

Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur loyihalarini ko'rib chiqish va ularni takomillashtirish yuzasidan takliflar berish;

Agentlik va jamoatchilik tomonidan berilgan takliflar asosida davlat tashkilotining korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur loyihasini takomillashtirish.

7. Jamiyatning Komplayens xizmati quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash ishlarini tashkil etish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur loyihalarini ko'rib chiqish.

3-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash tartibi.

8. Ishchi guruh tomonidan Jamiyat faoliyatining (vazifa va funksiyalarining) tavsifi ushbu Uslubiyotning 1-ilovasiga muvofiq shaklda tuziladi.

9. Jamiyat faoliyatidagi (vazifa va funksiyalardagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlar ichki va tashqi axborot manbalari asosida aniqlanadi.

10. Ichki axborot manbalari quyidagilardan iborat:

Jamiyat faoliyatining (vazifa va funksiyalarining) huquqiy asosi;

ichki tekshiruv materiallari, shu jumladan xizmat tekshiruvi materiallari;

Odob-axloq komissiyasi majlislarining yig'ilish bayonnomalari;

korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining monitoring natijalari;

Ishchi guruh tomonidan Jamiyat faoliyati (vazifa va funksiyalari) yuzasidan o'tkazilgan so'rovnomalar, shu jumladan sotsiologik tadqiqotlar natijalari va boshqalar.

11. Tashqi axborot manbalari quyidagilardan iborat:

Jamiyat faoliyati to'g'risidagi huquqbuzarliklar to'g'risidagi murojaatlar,

OAVdagi xabarlar va statistik ma'lumotlar;

Agentlik yoki boshqa davlat tashkilotlari tomonidan davlat tashkiloti faoliyati (vazifa va funksiyalari) yuzasidan o'tkazilgan so'rovnomalar, shu jumladan sotsiologik tadqiqotlar natijalari;

huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan taqdim etilgan materiallar va boshqalar.

12. Ishchi guruh Jamiyatning faoliyatidagi (vazifa va funksiyalaridagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlashda quyidagi holatlar tahlil qilinishi lozim:

Jamiyatning xodimi tomonidan sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik;

Jamiyat tomonidan faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) amalga oshirishda jismoniy va yuridik shaxslar uchun sun'iy to'siqlarning mavjudligi;

o'z vaqtida qaror qabul qilmaslik, asossiz tezkor tartibda qaror qabul qilish;

hujjatlar, elektron ma'lumotlar bazalariga bila turib yolg'on ma'lumotlarning kiritilishi;

xizmat vakolatlarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvi;

vakolatlarni amalga oshirishda mahalliychilik, homiylik, urug'-aymoqchilik kabi holatlarning mavjudligi.

13. Jamiyat faoliyatidagi (vazifa va funksiyalaridagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlarning darajasi quyidagi o'lchovlarda baholanadi:

Past;

O'rta;

Yuqori.

14. Ishchi guruh tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatar darajasiga baho berish mazkur Uslubiyotning 2-ilovasidagi mezonlar asosida amalga oshirilishi mumkin.

4-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning darajasini bartaraf etish choralari.

15. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

normativ-huquqiy hujjatlar hamda ichki idoraviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish;

inson omilini qisqartirish va davlat tashkiloti faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) raqamlashtirish, shaffoflikni ta'minlash, jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish;

Jamiyat faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) tartibga solish choralari ko'rish;

Jamiyat xodimlari va jismoniy shaxslar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqani maksimal darajada cheklash;

rasmiy veb-sayt va boshqa ommaviy axborot vositalarida Jamiyat tomonidan amalga oshirilayotgan davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlarni joylashtirish va tarqatish;

davlat xizmatlarini ko'rsatish jarayonini soddalashtirish, asossiz cheklovlarni, ortiqcha ma'muriy tartib-taomillarni bekor qilish, byurokratik tartibga solish mexanizmlarini yo'q qilish, taqdim etilgan hujjatlar soni va qaror qabul qilish muddatlarini qisqartirish;

Jamiyat tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan tushuntirish ishlarini amalga oshirish, profilaktik suhbatlar o'tkazish, ishonch telefonlari va aloqa kanallarida targ'ibot ishlarini amalga oshirish;

xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha ichki hujjatlarga har kuni, o'zaro va to'liq rioya qilishlarini nazorat qilish.

Jamiyat korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo'yicha qonunchilik hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa chora-tadbirlarni ham amalga oshirishi mumkin.

16. Jamiyatning tizimosti korxonalari tomonidan ushbu Uslubiyotning 3-ilovasiga muvofiq shaklda korrupsiyaviy xavf- xatarlar xarita loyihalari va mazkur Uslubiyotning 4-ilovasiga muvofiq shaklda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur loyihalarini ishlab chiqiladi va shu tashkilotdagi Ishchi guruhiga ko'rib chiqish uchun taqdim qilinadi.

17. Jamiyatning Ishchi guruhi tomonidan Jamiyat faoliyatidagi (vazifa va funksiyalaridagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash natijalari asosida Jamiyatning umumlashtirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi ishlab chiqiladi.

18. Jamiyatning Ishchi guruhi tomonidan xavf-xatarlar xaritasiga asosan quyidagi xujjatlar shakllantiriladi:

Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturi;

Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlari ro'yxati.

5-bob. Korrupsiyaga moyil bo'lgan munosabatlar elektron reyestrini shakllantirish va yuritish tartibi.

19. Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xarita loyihalari asosida korrupsiyaga moyil bo'lgan munosabatlar elektron reyestri shakllantiriladi.

20. Jamiyatning Ishchi guruhi Agentlik va jamoatchilik tomonidan berilgan takliflar asosida Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturi loyihalarini takomillashtiradi.

21. Boshqaruv raisi har yili 1-martga qadar korrupsiyaviy xavf- xatarlar xaritasi tasdiqlaydi.

6-bob. Yakuniy qoidalar.

22. Ushbu Uslubiyot O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi o'zgargan taqdirda yoki Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini tuzish jarayonini takomillashtirish zarurati tug'ilganda qayta ko'rib chiqilishi va o'zgartirilishi lozim.

23. Mazkur Uslubiyot talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

6

Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasiga baho berish bo'yicha MEZONLAR

Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi	Mezonlar
Yuqori*	Jamiyat faoliyati (vazifa va funksiyasi) avtomatlashtirilmagan
	Jamiyat faoliyati (vazifa va funksiyasi) tartibga solinmagan
	Nazoratsiz tartibda ish joyida jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilish imkoniyati mavjud
	Jamiyat faoliyati (vazifa va funksiya) doirasida qarorni loyihasini tayyorlashda, ko'rib chiqishda va qabul qilishda bir shaxs ishtirok etishi
	Jamiyat faoliyatini (vazifa va funksiyani) bajarishda korrupsiyaviy xatti-harakat sodir etilgan (jinoyat sodir etilganligi sud tomonidan tasdiqlangan)
O'rta	Jamiyat faoliyati (vazifa va funksiyasi) qisman avtomatlashtirilgan
	Jamiyat faoliyati (vazifa va funksiyasi) qisman tartibga solingan
	Nazorat tartibida ish joyida jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilish imkoniyati mavjud
	Jamiyat faoliyatini (vazifa va funksiyani) doirasida qarorni loyihasini tayyorlashda, ko'rib chiqishda va qabul qilishda ikkita shaxs ishtirok etishi
	Jamiyat faoliyati (vazifa va funksiyasi) bajarishda korrupsiyaviy xatti-harakat sodir etilganligi to'g'risidagi ma'lumot mavjud (jinoyat sodir etilganligi sud tomonidan tasdiqlanmagan)
Past	Jamiyat faoliyati (vazifa va funksiyasi) to'liq avtomatlashtirilgan
	Jamiyat faoliyati (vazifa va funksiyasi) to'liq tartibga solingan
	jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilish imkoniyati mavjud emas
	Jamiyat faoliyati (vazifa va funksiyasi) doirasida qarorni loyihasini tayyorlashda, ko'rib chiqishda va qabul qilishda uch va undan ortiq shaxs ishtirok etishi
	korrupsiyaviy xatti-harakat va korrupsiyaviy xatti-harakat sodir etilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud emas

“O‘zbekiston texnologik metallar kombinati” AJ faoliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarning
XARITASI

T/r	Korrupsiyaviy xavf-xatarning gavsifi	Korrupsiyaviy xavf-xatarning darajasi (past, o‘rta, yuqori)	Funksiyalarni (jarayonlarni) amalg oshirishga mas’ul bo‘lgan lavozim	Funksiyalarni (jarayonlarni) tartibga soluvchi mexanizm	Korrupsiyaviy xavf- xatarlarni bartaraf etish choralari	Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi (past, o‘rta, yuqori)	Mas’ul ijrochilar
	1. Tarkibiy bo‘linmaning nomi*						
1.	1. Bo‘lim funksiyasi nomi						
	1. Funksiyaga oid munosabat nomi						
	1. Jarayon nomi						
	2. Jarayon nomi						
	2. Tarkibiy bo‘linmaning nomi*						
2.	1. Bo‘lim funksiyasi nomi						
	1. Funksiyaga oid munosabat nomi						
	1. Jarayon nomi						
	2. Jarayon nomi						

Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish
DASTURI

T/r	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish chora-tadbirlari	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
1.				
2.				